
TOSHLOQ TUMANIDA «ONALAR BOG'I» TASHKIL ETILDI

Ayni kunlarda respublikamiz bo'ylab «Yashil makon: dolzarb 40 kunlik» loyihasi doirasida ko'chat ekish tadbirlari bo'lib o'tmoqda. Toshloq tumanida ham "Yashil makon" umummilliy loyihasi doirasida go'zal bog'-rog'lar barpo etish maqsadida manzarali va mevali daraxt ko'chatlari ekilmoqda.

Jumladan, tumandagi Axshak mahallasi hududidagi 2 gektar foydalanishdan chiqqan yer maydonida «Onalar bog'i» tashkil etildi. Yangi bog'da ko'chat ekish ishlarida tuman hokimi o'rinbosari - oila va xotin-qizlar bo'lim boshlig'i U.Marasulova, faol xotin-qizlar hamda ko'ngilli aholi vakillari qatnashdi.

Bog'da ekilgan har bir ko'chatni parvarish qilish, o'z vaqtida sug'orish bo'yicha mas'ullar tayinlanib, zarur tavsiyalar berildi.

2022-10-28 09:21:28